

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH TAMOYILLARI

*Kaxharova Odina Nazirjonovna*

*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada musiqiy ta'lim tushunchasi, umumta'lim maktablarida musiqa darslarini kuzatish jarayonidagi xulosa, o'quvchilarda musiqiy savodxonlikni oshirish borasida olib borilishi kerak bo'lgan choralar, musiqiy saviyaning insoniyat hayotidagi o'rni haqida fikrlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqiy ta'lim, musiqiy saviya, umumta'lim maktablarida musiqiy ta'lim, qobiliyat, musiqiy madaniyat.

## PRINCIPLES OF IMPROVING THE QUALITY OF MUSIC EDUCATION IN SECONDARY SCHOOLS

*Kakhkharova Odina Nazirjonovna*

*Graduate student of Namangan State Pedagogical Institute*

**Annotation:** In this article, the concept of musical education, conclusion in the process of observing music lessons in secondary schools, measures should be taken to improve musical literacy among school children, thoughts about the role of music in human life are given.

**Keywords:** musical education, musical scope, music education in secondary schools, ability, musical culture.

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq boshqa sohalarda bo'lgani kabi musiqa va madaniyatiga ham alohida e'tibor qaratildi va shuning bilan birgalikda o'sib kelayotgan yosh avlod ruhida ajdodlarimizdan qolgan musiqiy merosimizni shakllantirish, unga nisbatan muhabbat uyg'otish, umumta'lim maktablarida xalq musiqiy merosidan foydalanish orqali musiqiy saviyaning hayotga tatbiq qilinishi uchun atroflicha ishlar belgilab olindi. Shundan kelib chiqib, musiqiy tarbiyaning maqsadi-yosh avlodni sog'lom ruhda tarbiyalash, milliy merosimizga munosib vakillar bo'la olishi, umummilliy qadryatlarimizni anglaydigan va qadrlaydigan hamda kelajak avlodga yetkazib berish, ga qaratildi.

Bugungi kun o'qituvchisi yuksak tafakkurga ega, har taraflama mukammal, zamon bilan hamnafas, yangi innovatsiyalardan doim xabardor, ilg'or tajribalarga ega, yangi kashfiyotlar shaydosi va o'zi o'sishi uchun o'z ustida doimiy ishlovchi bo'lmog'i shart. Shuning bilan birgalikda musiqa fanidan tashqari pedagogika-psixologiya, psixologiya-fiziologiya, musiqa o'qitish uslubiyotidan chuqur bilim va tajribaga ega

bo'lishi zarur. Dars o'tish jarayonida faqatgina fanni zo'r bilishning o'zi kamlik qiladi. O'qituvchi fanni zo'r bilish bilan birgalikda o'quvchi bilan ishlay olish qobiliyati, uning xarakteri, jinsi va yoshiga qarab fanni o'quvchilar ongida qiziqarli shakllantirish hamda muhabbat uyg'otishi mumkin. Musiqa o'qituvchisi pedagogik muloqot ustasi bo'lishi va har qanday vaziyatda o'zining pedagogik mahoratidan foydalana olishi kerak. Birgina musiqa o'qituvchisining misolida butun bir maktab ma'fdaniyatini, qolaversa, bir hudud yuzini ko'rish mumkin. Hozirgi davrda o'quv jarayonini tashkil etish o'qituvchidan faqat chuqur bilimiga emas, balki pedagogik mahoratga ega bo'lishlarini, dars berishning turli metodlarini bilishni hamda yuqorida aytilganidek, o'z ustida tinmay ishlashni ham talab qiladi.

Kichik yoshdagi bolalar tarbiyasida, har tomonlama yuksak darajada shakllanishida musiqaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Prezidentimiz ham "Kuy, qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi" - deya musiqiy madaniyatning tarbiyaviy kuchiga yuksak baho beradilar. Tarixda ham, aytish mumkinki, ajdodlarimiz tarbiya jarayonida musiqaga alohida e'tibor bilan qarashgan.

Bugungi kunda zamonaviylashib, kundan kun taraqqiy topib borayotgan Yangi O'zbekistonda yosh avlodning jismonan yetuk va sog'lom ruhda o'sib-ulg'ayishi uchun mislsiz islohotlar olib borilmoqda. Aytish joizki, bugun mamlakatimizning eng cheka hududlarida ham yoshlarning zamonaviy hamda sifatli ta'lim olishlari uchun barcha sharoitlar mavjud. Umumta'lim maktablaridagi bunday shart-sharoitlar yosh avlodning yanada yuksak marralarni zabt etishi uchun zamin bo'lib xizmat qilmoqda, desam adashmagan bo'laman.

Yutuqlarimiz bilan birgalikda bir qator kamchiliklarimizni ham aytib o'tish joiz. Bugun maktablarda musiqiy ta'lim sifatini oshirish mavzusi ko'ndalangligicha qolmoqda. Musiqiy ta'limni yosh avlod ongida shakllantirish va yetarlicha musiqiy bilim berish borasida oqsoqlanishlarni kuzatishimiz mumkin. Buning barchasi yana o'qituvchiga kelib taqaladi. Musiqa darslarini sifatli tashkil etish hamda maktab o'quvchilarida musiqaga muhabbat uyg'otish va qiziqish orttirish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zidan yuksak aql va idrok talab qilinadi. Aynan oliy ta'limda musiqa ta'limi yo'nalishini tamomlagan kadrlargina musiqa fanidan dars berishi maqsadga muvofiqdir.

Musiqa faniga hech bir pedagog va o'quvchi shunchaki fan sifatida qaramasligi kerak. Ushbu fan bolalarning zerikib qolganliklarida dam oldirib yoki oldi-qochdi gaplar bilan o'quvchi yoshlarning qirq besh daqiqasini o'g'irlash bilan o'tkazib yuborilmasligi kerak. Dars mashg'uloti davomida berilgan mavzuni mazmunli va ifodali qilib o'tilishi musiqa pedagogining bilimi va mahoratiga bog'liqdir.

Zamonaviy va qayta rekonstruksiya qilingan bugungi yangi maktablarda musiqa fanining yuqori sifatda tashkil qilinishi uchun yetarlicha materiallar bilan ta'minlangan. Bugungi musiqa o'qituvchilariga qo'yiladigan talablardan biri - soz chala olish qobiliyati. Har bir musiqa o'qituvchisi kamida ikkita sozni chala olsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'rgatishga ham, o'rganishga ham oson bo'lgan milliy va zamonaviy instrumentlarni tanlash lozim. Masalan, dutorni olaylik. (Dutor (forscha: دوتار) – O'rta Osiyo, Eron va Janubiy Osiyoda tarqalgan an'anaviy ikki torli musiqa asbobidir). Dutorning ikkitagina ipdan iboratligi hamda oktavalari ko'p emasligi o'rganish va o'rgatish borasida unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuning bilan birgalikda rubob musiqa asbobi ham musiqa darslarini o'tishda eng qulay sozlardan sanaladi. Rubob-torli cholg'u musiqa asbobi. Ushbu asbob eng qadimgi cholg'u asboblari sirasiga kiradi va uch turga bo'linadi, bular: qashqar rubobi, afg'on rubobi (yoki Buxoro rubobi), hamda pomir rubobi. O'zining jarangdor va donadorligi bilan musiqa o'qituvchilari uchun dars mashg'ulotlarini o'tishda qashqar rubobi ko'proq qo'l keladi.

Boshlang'ich sinflarga o'tiladiga „Yozuv“ darsini olaylik. Bunda o'quvchilar harf yozishni o'rganishadi. Har bir harfni ikki va uch qismga bo'lib o'rganishadi. Bitta harfni o'rganish uchun ikki kun sarf bo'ladi. Avval elementlarini yozishni o'rganib, keyin har bir qismni qo'shish natijasida yangi bir harf yozish va o'qish ko'nikmasiga ega bo'lishadi. Musiqa darslarida ham har bir mavzuni shunday „maydalab“ o'tish kerak deb o'ylayman. Misol uchun, yettita notaning har biriga qirq besh daqiqadan vaqt ajratilgan taqdirda, har bir o'quvchi yettinchi sinfni bitirguniga qadar kamida bema'lol nota o'qiy olish ko'nikmasini egallaydi. Bugun bitta sinfda kamida birgina o'quvchi musiqa maktabida o'qisa, ana o'shaning o'zigina nota nima ekanligini tushunadi xolos. Bu esa bora-bora xalqimizning musiqiy savodligining tushib ketishiga olib kelmoqda.

O'qituvchining yuqori darajadagi psixologik savodi va madaniyati o'quv tarbiyaviy ishlar jarayonida barcha turdagi psixologik vazifalarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. Shuning uchun o'quvchilar musiqiy madaniyatini shakllantirish barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni diqqatini to'plash, ularning ham aqliy ham hissiy idrok etishini tashkil etish, xotirasini, ijodiy taffakurini rivojlantirish, ularning aqliy, irodaviy va boshqa xususiyatlarini shakllantirish kabi psixologik jarayonlardan samarali foydalanishga bevosita bog'liqdir.

Yana musiqa o'qituvchisi xoreografiyadan ham xabardor bo'lishi, ritmika va raqs jarayonlarini sifatli tashkil eta olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Chunki har bir maktabning tadbiriy ishlari bevosita musiqa o'qituvchisi bilan uzviy bog'liq. O'qituvchining salohiyati ham bunda asosiy rol o'ynaydi. Yoshlarning yoshiga va uyushtirilajak tadbirga mos kuy, qo'shiq tanlay olishi va shuning bilan birga raqs sahnalashtira olishi kerak. Qaysi sahnadan keyin qanday qo'shiq ijro qilinishi yoki

qaysi she'rdan keyin qaysi kuy mos kelishini rejalashtira olishi uchun esa undan ssenariynavislilik qobiliyati talab qilinadi.

Musiqqa darslarini qiziqarli tashkil etishda yangi innovatsion hamda interfaol metodlar qo'llanilishi kerak. Shuning bilan birga darslarda zamonaviy texnologiyalardan samalari foydalana olish pedagogik mahoratni mukammal egallashga yordam beradi. Pedagogik texnologiyada jamoa bilan kirishib keta olishi, o'z mahoratining yutug'i va kamchiliklarini anglay olishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borishi o'qituvchining kasbiy tarafdin faqatgina oldinga siljishiga undaydi. Pedagog o'qitishning turli xil yo'llariga murojaat qilishi lozim. U davlat tomonida tatbiq etilgan standartlargagina suyanib qolmasdan, o'zining ijodkorlik mahorati bilan darslarga ijodiy yondashib, musiqqa o'qitishning optimal metodlaridan foydalanishi, o'zi erkin ijod qila olishi zarur. Bunda noan'anaviy bo'lgan „dars-konsert“, „dars-munozara“, „dars-qo'shiq“ integrallashgan dars shakllarini o'quv jarayonida qo'llay olishi o'quvchilarda musiqiy qobiliyatni oshiradi, ular o'zini erkin tutishni, fikrlarini erkin va keng bayon qilishni o'rganadi. Bunday darslarda o'qituvchi dars bayonini to'g'ridan to'g'ri so'zlab bermasdan mavzuga doir ko'rgazmali qurollar, rasmlar, filmlardan parchalar, plakatlar, musiqiy obrazlar, musiqiy jadvallardan foydalanishi esa darsning samarali o'tishiga yordam beradi. Qobiliyatsiz o'quvchi bo'lmaydi. O'quvchining qobiliyatini sezmaydigan o'qituvchi bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, har bir o'quvchida musiqaning qay bir yo'nalishiga qobiliyati borligini anglay olish hamda unda shakllantirish musiqqa o'qituvchisiga bog'liq. Chunki ba'zilar tabiatan tortinchoq bo'lib, o'z qobiliyatlarini namoyon qilishga uyaladi. Mana shunda musiqqa o'qituvchisining pedagogik va psixologik mahorati qo'l keladi.

Men Namangan viloyati Norin tumanidagi 38-umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-6-7-sinflarning musiqqa darslarini kuzatishlarim natijasida shuni tushundimki, o'quvchilarda musiqiy madaniyatning kuchayishi, musiqiy savodxonlikning oshishi, fanga nisbatan ijodiy munosabatning kuchayishi, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatining shakllanishi o'qituvchining o'quvchilar bilan yaqindan ishlay olishi uchun kuchli psixologik tajribaga ega bo'lishi hamda o'z muhitini yaxshi bilib ish ko'rishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun o'qituvchi oldida turgan eng katta va asosiy vazifa o'quvchilarda tabiiy ravishda fanga nisbatan ehtiyoj hosil qilish, ongli ravishda harakatlarini shakllantirish, o'z o'zini nazorat qila olishlik, holatni tahlil qilish, aqliy ehtiyojlarini rivojlantirish va o'zini o'zi to'g'ri baholashni tashkil qilishdan iboratdir.

Yurtimizda sog'lom avlodni tarbiyalashda muhim bo'lgan musiqiy tarbiyani sifatli darajada amalga oshirishda davlat va jamiyat tomonidan qo'yilgan muhim vazifalarni bajarish musiqqa o'qituvchisidan o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini yaxshi anglay olishi talab etiladi.

Ma'lumki, maktablarda 1-sinfdan 7-sinfgacha musiqa darslari o'tiladi. O'quvchilarda musiqa darslarida faol qiziqish uyg'otib, o'z qobiliyatlarini rivojlantirib borishi, musiqani idrok etish va musiqiy savodga ega bo'lib borishi asosiy vazifadir. Musiqa o'qituvchisi ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun har bir sinf o'quvchilari yoshidan kelib chiqib ish ko'rishi, o'zining psixologik mahoratini ishga sola bilishi maqsadga muvofiqdir.

Masalan, birinchi sinf o'quvchilarining diqqati va e'tibori noturg'un bo'ladi. O'qituvchi o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda ilk darslardayoq bolalarda qiziqish uyg'ota olishi va kuchli tasavvurga ega holatda darsni yakunlashi kerak. Ikkinchi sinflarda ham xotira nisbatan yaxshi shakllanmagan va e'tibori noturg'un bo'ladi. Ammo musiqa fani haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Bu sinf o'quvchilarining fanga qiziqishlarini yanad kuchaytirish va to'g'ri shakllantirib borish zarur. Uchinchi sinflarda xotira nisbatan ancha rivojlangan hamda mavzularga ijodiy yondasha olish qobiliyati mavjud bo'lganligi sabab mavzularni musiqiy faoliyatga bog'lab o'tish kerak. To'rtinchi va beshinchi sinf o'quvchilari esa psixologik jihatdan ancha rivojlanganligi va diqqat-e'tibori turg'unlashganligini inobatga olib, mavzularni idrok etishlarida ular suhbatlashish oqali maqsadga erishish mumkin. Oltinchi sinf o'quvchilarida esa fiziologik o'zgarishlar bo'ladi va bu davrda o'qituvchi o'quvchilar bilan birmuncha yaqinroq va do'stona holatda darslarga kirishishi lozim. Yettinchi sinfga kelib esa, o'quvchilar rostmana o'spirinlik davrida bo'ladilar va ko'pchilikda mutatsiya jarayonini kuzatish mumkin. Shuning uchun musiqa o'qituvchisi bunday paytda darslarda o'quvchilar bilan ham do'stona, ham qattiqqo'l bo'lishi talab etiladi. 7-sinfl dars jarayonlarida o'quvchilarning diqqati tarqoq bo'ladi. Shuning uchun ular bilan jiddiyroq munosabat o'rnatish, har bir o'quvchining psixologik jihatlaridan kelib chiqib ish ko'rish o'quvchilarda fanni mukammal qabul qilishga yordam beradi.

Alohida ta'kidlash lozimki, musiqa fanining bosh maqsadi insonlarda ma'naviyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini yuksaltirishdir. Bu maqsadni amalga oshirish esa bilim va malakali bo'lgan musiqa o'qituvchisi hamda uning kasbiy, ijodiy mahoratiga bog'liqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008, 176-b.
2. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. T., 2009. 224-b.
3. G.Sharipova.G.Najmekdinov Musiqa oqitish metodikasi praktikumi
4. O.Mahkamova, S. R., & Shahzod, G. (2021). O'QUVCHILAR TARBIYASIDA MUSIQA FANINING TUTGAN O'RNI. Scientific progress, 1(5)

#### **Internet manbalari:**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Faoliyat>
2. <https://fer-teach.uz>